

Yo'lbars va yo'lovchi Koreys xalq eratagi

Tog'da ikkita kichik-kichik qishloq bo'lgan ekan. Ularni bir- biri bilan dovon orqali o'tadigan yolg'izoyoq yo'l tutashtirib turarkan.

O'sha yerlarda bir vaqtlar bir yo'lbars bo'lar ekan. U har yili yo'lovchilarga hamla qilishni o'ziga odat qilib olgan ekan.

Qishloq oqsoqollari uzoq maslahatlashib, oxiri yo'lbarsga tuzoq qo'yishga qaror qilishibdi.

Bir kuni yolg'izoyoq yo'ldan o'tib borayotgan yo'lovchining qulog'iga haligi ovoz eshitilibdi. U ovoz chiqayotgan tomonga qarab yuribdi. Bir vaqt bir qazilgan chuqurlikka duch kelibdi. Chuquriik tagida bir bahaybat yo'lbars chiqa olmay o'kirib yotganmish. Yo'lbars chuqur tepasida paydo bo'lgan odamni ko'rib qolib:

Hoy yo'lovchi, menga yordam ber! Bu yaxshiligingni aslo unutmaysan, aksincha, barcha do'stlaringa so'zlab beraman! Ulaming hammasi senga astoydil xizmat qiladi, faqat meni qutqarib ol! - deb yolvoyibdi.

Yo'lovchining yo'lbarsga rahmi kelibdi. U uzun daraxtni arralab chuqurga tushiribdi. Yo'lbars daraxtga tirmashib chuquriik ichidan chiqib olibdi. Biroq u o'z xaloskoriga minnatdorchilik bildirish o'miga yaxshilab kerishibdi-da, uni yemoqchi bo'lib hamla qilibdi.

Yo'lovchi yo'lbarsning kutilmagai bu bejo harakatidan qattiq qo'rqib ketibdi.

Men emasmi seni o'limdan qutqargan, ko'mamak? Yaxshilikni shuncha tez unutdingmi? Yana buning ustiga meni yemoqchisan? - debdi jahli chiqib yo'lovchi.

- Men hech narsani unutganimcha yo'q, - deb javob qilibdi yo'lbars,- ammo men chuqurga odam tufayli tushdim, shunday emasmi?

U bizning doimiy dushmanimiz. Sep bekorga ko'nglimni yumshatishga harakat qilyapsan,

- Nima ham derdim, balkim sen haqdirsan, - debdi yo'lovchi. - Kel, yaxshisi, biror kimsadan so'raylik, u bizning mojaromizni bir yoqlik qilib bera qolsin!

Ular ho'kizga murojaat etishibdi.

Shubhasiz, odam nohaq, - debdi ho'kiz. - U bizlami og'ir ishga qo'shadi, arava torttiradi, keyin so'yib yeydi. Hatto terimizni ham shilib oladi. Yo'lbars, darhol uni yeb qo'y!

Bu javob yo'lbarsga yoqib tushibdi, u yanayam qattiqroq o'kirib, yo'lovchini yemoqchi bo'lib unga yaqinlashib boribdi.

To'xta, sabr qil, kel, qarag'aydan sorab ko'raylik Qarag'ay anchadan beri bizning bahsimizga quloq solib turibdi,- debdi yo'lovchi.

Dunyoda odamzoddan badtari yo'q, - deb javob beribdi qarag'ay. - U bizlami arralaydi, chopadi va o'choqlarga qalab yoqadi. Unga men zinhor rahm-shafqat qilishni istamayman, - debdi qarag'ay mag'rurona boshini ko'kka cho'zib.

Qarag'ay ham odamga yon bosmaganini ko'rib yo'lbars badtar avj olibdi.

- Kimdan so'ramaylik, hammasi bir xil javob qilyapti. Seni yeyishdan bo'lak chora qolmadi. O'zingdan ko'r, hoy odamzot!

Shunday deya yo'lbars yo'lovchiga hamla qilmoqchi bo'libdi.

Yo'lovchi shunday bir yaxshilikni bilmaydigan yo'lbarsni o'limdan qutqarib

qolganiga rosa pushaymon qilibdi, ammo iloji qancha. Shu payt uning baxtiga chakalakzordan sakrab-sakrab quyon chiqib qolibdi. Yo'lovchi ichidan xursand bo'lib ketibdi: "Balki quyon biror yo'lini o'ylab topar, axir u tadbirkorlikda nom chiqargan-ku!"

- Yo'lbars bilan odam bo'lgan voqeani quyonga so'zlab berishibdi, quyon o'ylab bunday debdi:

- Hay, mayli, sizlarning bahsingizni odilona yechib berishga harakat qilaman. Lekin men voqea qanday yuz berganini bir boshdan ko'rishim kerak.

Yo'lbars yo'lovchiga tantanavor qarab qo'yibdi: u quyon ham uning tarafini olishiga sira shubhalanmabdi:

- Yaxshi! - debdi yo'lbars va qayta chuqur ichiga tushibdi.

Shunda quyon yo'lovchiga qarab:

Sen yo'lbarsni o'lim changalidan qutqarib qolganing uchun baloga qolgan eding. Endi esa ko'ngling xotirjam bo'lsin, - debdi. Keyin chuqurlik tepasiga kelib, engashib yo'lbarsga qarab debdi: - Sen esa chuqurda qolganing yaxshi. O'shanda kim haq, kim nohaqligini surishtirishga hojat qolmaydi. Hammasi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi-qoladi, - debdi.

- Yo'lovchi bilan quyon yo'llarida davom etishibdi Yaxshilikning qadriga yetmagan yo'lbars esa chuqurlikdan chiqa olmav, o'kira-o'kira o'sha joyda jon beribdi.

Uzoq sharq kitobidan.